



LINGVISTIKADA FONETIK TERMINOLOGIYA VA UNING TAVSIFI OID MULOHAZALAR

Murodova Farzona

Termiz davlat universiteti Filologiya va
tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
talabasi

+998 50 721 12 06

E-mail: murodovaf@gmail.com

Xolova Muyassar

Ilimiy rahbar:

TerDU O'zbek tilshunosligi dotsenti
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17430899>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 24-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

*assimilyatsiya, dissimilyatsiya,
diareza, metateza, tavsifiy
fonetika, tarixiy fonetika,
qiyosiy fonetika*

ABSTRACT

Maqolada o'zbek tili shevalarida uchraydigan fonetik o'zgarishlarning tabiati va ularning adabiy til normalari bilan o'zaro aloqasi tahlil qilingan bo'lib, fonetik o'zgarishlarning asosiy turlari: assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diareza, metateza va hokazolar yoritilgan unli va undosh tovushlardagi almashuv, qisqarish, cho'zilish borasida fikrlashilgan. Shu bilan bir qatorda fonetik hodisalarni empirik materiallar asosida o'rganib, ularni o'zbek adabiy tili bilan qiyosiy tahlil qiladi va fonetik terminologiya va terminlarning izohlanishi va ularning ilmiy qo'llanishidagi ba'zi nomuvofiqliklarga ham e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari jahon va o'zbek tilshunosligida fonetik o'zgarishlar masalasida olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning nazariy asoslari bilan bog'lanadi.

Har bir soha o'ziga xos terminlarni qamrab olgan bo'lib, ularning vazifasi ilmiy tushunchalarni ifodalashdir. Tilshunoslik fanining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan - fonetika ham shular qatorida o'z terminlar sistemasiga ega. Fonetik terminlar yordamida tilning tovush tizimi, ularning xususiyatlari va ishlash qonuniyatlari izohlanadi¹. Fonetika (yunoncha: phonetikos — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo'shib, uning o'rganish obyekti yanada kengaytiradilar². Hozirgi kunda tilshunoslikning fonetika sathi va undagi terminologiyaga oid masalalar tahlilini Sherba L.V.,

¹ Taxmina J. O'zbek tilshunosligida fonetik terminlar va ularning izohiga doir ayrim qaydlar // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 180-185.

² Eramian G. M. The Separation of Levels in Shcherba's Phonemic Theory // Canadian Slavonic Papers. – 1975. – T. 17. – №. 1. – C. 126-142.

Eramian G. M.³, Kuper D. S.⁴ Sichakova L.⁵, Losad P.⁶ kabi olimlarning tadqiqotida, shuningdek o'zbek tilshunosligida Jamolxonov H.⁷, Mengliyev B.⁸, Umurqulov B.⁹ kabi olimlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, perseptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi. Fonetik birliklarning lingvistik-funksional jihatlarini o'rganish, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bungacha "fonema" va "fonologiya" tushunchalari bo'lmagan, hatto "tovush" va "harf" tushunchalari bir hodisadek tasavvur etilgan. Buni taniqli tilshunos Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham kuzatish mumkin. "Devon»dan keltirilgan quyidagi misralar fikrimizning dalilidir: "Turkiy tillarda qo'llanadigan asosiy harflar soni 18 ta Turkiy yozuvda shular qo'llaniladi"¹⁰. Fonetikaning maqsadi — fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi: a) tovush, urg'u, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy nazariy fikrlar bilan tanishtirish; d) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; e) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish; f) talabalarga shu sohada ishlagan fonetist-fonologlar haqida qisqacha ma'lumot berish. Nutq tovushlarini turli tomondan o'rganish mumkin: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o'zbek tili va mahalliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan, nutq tovushlarini turli asboblarda yordamida eksperiment qilish yo'li bilan va boshqalar. Shunga ko'ra, fonetika nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetikaga, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika kabi bir necha sohaga bo'linadi.

Umumiy fonetika. Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiati, anatomik- fiziologik (biologik) asosi va lingvistik-funksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq tovushlari fonema tiplariga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik oppozitsiyalar (zidlanishlar) va korrelatsiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonologik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga xos bo'lgan bunday nazariy masalalarni ko'rish umumiy fonetika predmeti sanaladi. Xususiy fonetika. Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi: o'zbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi. Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini o'rganishda umumiy fonetika xulosalariga, shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida to'plangan tajribalarga tayanadi. Uning quyidagi ikki turi bor: a) tavsifiy

³ Eramian G. M. The Separation of Levels in Shcherba's Phonemic Theory //Canadian Slavonic Papers. – 1975. – T. 17. – №. 1. – C. 126-142.

⁴ Cooper D. S. LV Shcherba and the concept of linguistic experimental phonetics //Journal of Voice. – 1993. – T. 7. – №. 3. – C. 257-269.

⁵ Sičáková E. Fonetika a fonológia pre elementaristov. – Náuka, 2002.

⁶ Losad P. Phonology in the Soviet Union //The Oxford History of Phonology. Oxford: Oxford University Press. Manuscript in preparation. – 2018.

⁷ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: Talqin. – 2005. – T. B.lar. 272.

⁸ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent-2018. – 2018.

⁹ Rahimov S., Umurqulov B., Eshonqulova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: Moliya. – 2003.

¹⁰ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: Talqin. – 2005. – T. B. 25. B.lar. 272.

fonetika. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan boglanmay) o'rganiladi. Xususan, «Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi» ham aslida tavsifiy fonetikadir, chunki unda o'zbek tilining fonetik tizimi, bu tizimda mavjud bodgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, urg'u, bo'gin va hokazolar) hozirgi o'zbek tilida qanday bo'lsa, shundayligicha- (tarixiy jarayon va faktlarga bog'lanmay) o'rganiladi; 2) tarixiy fonetika. Ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishini o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so'zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo'ladi. Tovushlarning tadrijiy taraqqiyoti shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi, tarixiy sabablari aniqlanadi. Masalan, o'zbek tilida hozir v fonemasining ikkita – lab-lab, lab-tish varianti bor. Tarixiy fonetika v fonemasidagi shu belgilarning kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlaydi: lab-lab varianti (v) o'zbek tili uchun birlamchi va qadimiy fonema hisoblanadi. Sof o'zbekcha va asl turkcha so'zlarda bu tovushning lab-lab varianti ishlatiladi. Masalan, ov, suv, yayov, qovun, haydov, yaylov kabi. O'zbek tilining keyingi paytda boshqa tillar bilan munosabati kuchayishi natijasida bu fonemaning lab-tish varianti yuzaga keladi. Bu variant boshqa tillardan, xususan, arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan va'da, vido, vint, vagon, vaqt, viloyat kabi so'zlarda uchraydi.

Qiyosiy fonetika esa qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o'rganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi. Bunda bir qancha qarindosh tillarning yoki bir qancha dialekt va shevalarning materiallari – unli va undoshlar, fonetik o'zgarishlar va shu kabilar bir biriga qiyoslash asosida o'rganiladi. Masalan, singarmonizm qonuni hozirgi o'zbek adabiy tilida buzilgan, lekin boshqa turkiy tillarda, shuningdek, ayrim o'zbek dialektlarida to'la saqlangan. Bu materialni qiyosiy o'rganish asosida avval o'zbek adabiy tilida ham singarmonizm hodisasining to'la ravishda bo'lganligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin¹¹. Tavsifiy fonetika yoki fonologiya kelsak, ma'lum bir til taraqqiyotining ma'lum bir davri oralig'idagi tovush sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tavsifiy fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug'ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o'tmaydi. Tavsifiy fonetika tovushlarni quyidagi aspektlarda o'rganadi: -fiziologik (nutq tovushlarining nutq organlari yordamida hosil bo'lishi – tovushlar fiziologiyasi); -akustik (o'z sifatleri bilan eshitish taassurotlariga ta'sir etish – nutq tovushlarining akustikasi); -lingvistik (so'zlarning semantik differentsiatsiyasida tovushlarning o'rni). Aloqa vositasi sifatida uchinchi aspekt asosiy hisoblanib, fonetikani lingvistika tarkibiga qo'shadi. Tovushlarning kombinator, pozitsion variantlari va ularning o'zgarishlari ham shu sohaning asosiy o'rganish obyektlaridandir. Eksperimental fonetika. Nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o'rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi. Masalan, bu usul vositasida unli tovushlarning cho'ziqlik yoki qisqalik, undoshlardagi portlash yoki sirg'alish hodisasini juda aniq belgilashga, nutq tovushlarining tasnifiga asos bo'ladi. Fonetika bahsining bunday tarmoqlanishi nutq tovushlarini hozirgi o'zbek tili me'yorlari nuqtai nazaridan tasvirlash, tarixiy ekskursiya

¹¹ NabiyevaD.A, Zokirova H.R. O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon, 2016 . B. 5-6. B.lar.105.

niyatida ayrim nutq tovushlarining taraqqiyot protsessiga ham nazar tashlash, adabiy talaffuzning shakllanishi va takomilini ko'rsatish maqsadida adabiy til fonemalarini o'rni bilan markaziy yetakchi shevalarning nutq tovushlariga yo'l-yo'lakay qiyoslab o'tishni taqozo etadi. Fonetikaning mustaqil bo'lgan bu bo'limlari o'zaro mustahkam bog'langan. Ular bir-birining materiallariga tayanib ish ko'radi¹².

Assimilyatsiya. Nutq tovushlari qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa assimilyatsiya deyiladi. Assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv assimilyatsiya va regressiv assimilyatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: (ket+di=ketti, ayt+di=aytti, ot+dan=ottan, yurak+ga=yurakka). Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya yuz beradi: (yigit+cha=yigichcha, yoz+sin=yossin, uch+som=ussom, tuz+sin=tussin). Rus tilida *отдать* so'zi *оддать* tarzida talaffuz etiladi. Bu ham regressiv assimilyatsiyaga misol bo'ladi. Regressiv assimilyatsiya odatda progressiv assimilyatsiyaga nisban nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilyatsiyaning bu turida keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun so'zining talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur ham hosil bo'lmog'i lozim¹³.

Dissimilyatsiya. Og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshay bermasdan, ba'zan uning aksi bo'ladi. Ayrim paytda talaffuzda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda ulardan biri noo'xshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa assimilyatsiya kabi progressiv va regressiv bo'ladi. Keyingi tovush noo'xshash tovushga aylansa progressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *zarar-zaral, zarur-zaril, birorta-bironta, muyassar-muyastar, kissa-kista* kabi.) Oldingi tovush o'zgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *malol-malor, koridor-kalidor, ittifoq-intifoq* kabilar¹⁴. Eliziya. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki sozning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so'z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladiyozoladi, bora oladi- boroladi, qora ot- qorot*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan-borarkan, borar emish- borarmish, yozgan ekan-yozgankan* kabi: v) *Abdusalom* so'zining *Absalom, Abdujabbor* so'zining *Abjabbor, olib kel* so'zining opke tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan formasi hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida so'zlarning qisqargan shakli hosil bo'ladi. Diereza. So'z tarkibida birorta tovushning tushib qolishi. o'zbek tilida *Go'sht, do'st, rost*, bo'lsin so'zlari tarkibida kelgan [t] va [l] tovushlari tushirib talaffuz qilinadi: *go'sh, do's, ros, bo'sin* kabi. Rus tilidagi *счастливо, известно* so'zlari nutqda *счасливо, извесно* tarzida aytiladi. Demak, nutq tovushlari har bir til qonun-qoidalariga muvofiq ma'lum tartib bilan tutashib, birikib so'z hosil qilar ekan, so'z tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan o'zgargan holda ham talaffuz etilishi mumkin. Ba'zi hollarda bu imloda ham o'z aksini topadi. Bunda o'zbek adabiy tilidagi [-ga] qo'shimchasining variantlarini misol qilish mumkin: *terak+ga=terakka, buloq+ga=buloqqa*. Rus tilida *бесплатно-*

¹² Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon, 2016. B. 5-6. B.lar.105.

¹³ Abduzalova M., Yo'ldosheva D. Tilshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet: 2005. B. 28. B.lar.176.

¹⁴ Abduzalova M., Yo'ldosheva D. Tilshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet: 2005. B. 28. B.lar.176.

бесплатно, рассказать-рассказать so'zlarida qo'llangan jarangli [z] o'rnidagi [s] ham orfografiyada o'z aksini topgan. Eliziya hodisasiga uchragan ba'zi so'zlar ham shular jumlasidandir. Metateza. o'gzaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'rni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon metateza deyiladi: r-y: daryo dayro: m-g: yomg'ir-yog'mir, b-r: tebratmoq-terbatmoq: yamlamoq yalmamoq: h-v: ahvol-avhol: p-r: tuproq-turpoq, r-g: o'rganmoq-o'granmoq: g-r: to'g'ramoq-to'rg'amoq, n-m: aylanmoq-aynalmoq; shayton (ad.t.) – šājītan, (shv.)(shv.) qirg'iy (ad.t.) - qijyir (shv.), la'nat (ad.t.)- nā:lāt, no'xat (ad.t.)- naxōt (shv.);, so'z oxirida: uyqu (ad.t.)- ūjqi (shv.), tegmoq (ad.t.)- tiymaq (shv.)¹⁵.va b. Chunonchi, rus tilidagi тапелка so'zi aslida nemischa talerka shaklida bo'lgan, arabcha oqvot so'zi o'zbek tiliga ovqat tarzida qabul qilingan. Demak, bu hodisa chetdan kirgan so'zlarda ko'proq uchraydi. Proteza. So'z boshida bitta unlining orttirilishi proteza hodisasi sanaladi. Odatda, sonor [r] tovushidan oldin [o] va [i] unilari orttiriladi: *ro'mol-oramol, roza-oraza, rayhon-irahon, rozi-irozi, rais-irais, rang-irang, rozg'or-orazg'or* kabi. Ayrim holatda so'z boshida sirgaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda [i] unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, sprafka-isparka, stol-istol, shtraf-ishtarap, stansiya- istansa*. Epenteza. So'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda ular orasida [i], ba'zan [u] va [a] unlisi orttiriladi: *fikr-fikir, hukm- hukum, doklad dakalad, klass-kilass*. Epiteza. So'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng [a] tovushining qo'shilish hodisasidir: *disk-diska, bank-banka, tank-tank, kiosk kioska, otpusk-otpuska* kabi. Prokopa. Bunda so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq-iroq, yog'ach-og'och, yirik-irik*. Sinkopa. Bu hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unililar tor unililar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, director-direktir, generator-generatir* kabi. Apakopa. So'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *Do'st-do's, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen* va boshqalar. Sinerezis. Bu hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz etiladi: *maorif-mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t, jamoat-jamo:t*. Bu hodisa asl o'zbekcha so'zlarga xos bo'lmagan holatga daxldorli borasida professor Jamolxonov H. ta'kidlab o'tgan. Reduksiya. So'zning birinchi bog'inida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, bir, bil, til so'zlari bir bog'inli bo'lganligi va urg'u shu so'zdagi [i] unlisiga tushganligi tufayli bu so'zlardagi [i] unlisi me'yordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu so'zlarning oxiriga ikkinchi bir bog'in qo'shilishi bilan urg'u ham ikkinchi bog'inga ko'chadi. Natijada birinchi bo'g'indagi [i] unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: bilak, tilak, biroq. Birinchi bog'indagi urg'ularning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo'la oladi (reduksiya so'zining lugaviy ma'nosi "kuchsizlanish", "orqaga qaytish", "pastga tushish" demakdir). Reduksiyaga quyidagi so'zlarning birinchi bog'inida kelgan [i] ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo'la oladi: pishiq, shira, pishak, qiliq, ichak kabi. Reduksiyaning ikkinchi bog'inida kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa so'zga uchinchi bog'in qo'shilganda sodir bo'ladi - ikkinchi bog'indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun- burni, bo'yin-bo'yini, egin-egni, keyin-keyni* kabilar.

¹⁵ Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bu kabi fonetik o'zgarishlarni ko'rib o'tar ekanmiz, tilimizdagi fonetik birliklar tarkibidagi o'zgarishlarning aniq bir chegarasi qo'yilmaganligining guvohi bo'lindi. Masalan, tushish bilan bog'liq bo'lgan hodisalarning bir o'rnida diareza, qolgan o'rinlarda eliziya, sinkopa, reduksiya kabi atamalar bilan berilib, bir qarashda funksilayarning ayni qaytarilayotgandek tasavvur uyg'otadi¹⁶. Bundan tashqari orfoepik va orfografik fonetik tabiatga oid turlilik o'ziga xos bo'lgan pozitsion va kombinator o'zgarishlar doirasida aniq bir nazariyalarning ishlab chiqilishi tilshunoslikda amaliy yondashuvlarga keng yo'l ochgan bo'lar edi¹⁷;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eramian G. M. The Separation of Levels in Shcherba's Phonemic Theory //Canadian Slavonic Papers. – 1975. – T. 17. – №. 1. – C. 126-142.
2. Cooper D. S. LV Shcherba and the concept of linguistic experimental phonetics //Journal of Voice. – 1993. – T. 7. – №. 3. – C. 257-269.
3. Sičáková L. Fonetika a fonológia pre elementaristov. – Náuka, 2002.
4. Iosad P. Phonology in the Soviet Union //The Oxford History of Phonology. Oxford: Oxford University Press. Manuscript in preparation. – 2018.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: Talqin. – 2005. – T. 272.
6. Jumayeva T. O'zbek tilshunosligida fonetik terminlar va ularning izohiga doir ayrim qaydlar // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 180-185.
7. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent-2018. – 2018.
8. Rahimov S., Umurqulov B., Eshonqulova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: Moliya. – 2003.
9. Nabyeva D.A, Zokirova H.R. O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon, 2016. B. 83-88. B.lar.105.
10. Abduzalova.M., Yo'ldosheva.D. Tilshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet: 2005. B. 28. B.lar.176.
11. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.
12. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.

¹⁶ Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.

¹⁷ Xolova M. A. O'zbek shevalarida fonetik o'zgarishlar (Surxondaryo viloyati misolida) // So'z san'ati xalqaro jurnali = Международный журнал искусство слова = International Journal of Word Art. – 2025. – № 2. – C. 110. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>.